

## MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA BOLALARNING SENSOR TARAQQIYOTI O'RGANILISHI

**Tojiyeva Mashxura**

*SamDCHTI, Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili II fakulteti talabasi*

**Anotatsiya:** *Maqolada maktabgacha yosh davridagi bolalarning sensor taraqqiyoti va xususiyatlari uni yoshga bog'liq xolatlari va aqliy taraqqiyotni sensor taraqqiyotga bog'liq ekanligi sensor taraqqiyotni amalga oshirish yo'l-yo'riqlari ko'rsatib o'tilgan bo'lib sensor taraqqiyotni rivojlantiruvchi mashqlar va o'yinlar haqida malumotlar berilgan. Bundan tashqari sensor taraqqiyot bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlar va olimlarning fikrlari bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Yosh, davr, sensor, taraqqiyot, xususiyat, aql, ilmiy ishlar, mashq, o'yin, xolat*

Maktabgacha yosh davri bolaning jismoniy fiziologik va psixologik taraqqiyotida muhim davr ekanligi tufayli bu davrdagi bolaning psixik taraqqiyotini o'rganish borasida bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Maktabgacha yosh davridagi bolaning sensor taraqqiyoti borasiga rus olimi L.A.Venger tadqiqotlar olib borgan. U bolaning aqliy taraqqiyoti bilan sensor madaniyatning bog'liqligini psixologik jihatdan yoritib bergan. Chunki u olamni bilishning idrok etish bilan bog'lanishini ko'rsatib o'tadi. Shu bilan birga u har bir yosh davrida bolaning sensor taraqqiyoti xususiyatlarini yoritib berishga xarakat qilgan. Sensor taraqqiyotni amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini ko'rsatib bergan. Bularni sensor rivojlantirish mashq va o'yinlarni ishlab chiqqan. Chet el psixologiya sohasida salmoqli tadqiqotlarni olib borgan olim M.Montessori ham bolaning sensor taraqqiyoti sohasida olib borgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir. U maktabgacha talimtarbiya sohasiga —sensor madaniyatni tushunchasini olib kirgan. U shakl, rang, katta-kichikni farqlashga o'rganishda sezgi azolarini mashq qildirishni tavsiya etadi. Chet el olimlaridan F.Frebel, O.Dekram bolaga sensor tarbiya berish bolalarda sensor taraqqiyotni taminlashga yo'naltirilgan faoliyat ekanligini ko'rsatib, bu bolaga maktabgacha yosh davrida talim tarbiya berishning asosiy tomonlaridan biri ekanligini takidlab o'tadilar. Rus olimi A.V.Zaporojes bolaga sensor tarbiya berishda —sensor etalonni tushunchasiga urg'u bergan. U bolalarda sensor etalonlar haqida tasavvurlarni xosil qilishga etiborni qaratib sensor etalonlar bu olamning tashqixususiyatiga ko'ra umumiy qabul qilingan namunalar ekanligini takidlab o'tadi. Rus psixologlaridan E.I.Tixiva, A.B.Usova, N.T.Sakumenalar ham bolaning sensor taraqqiyoti va uning aqliy taraqqiyoti dagi o'rnini yuzasida tadqiqotlar olib borganlar. Maktabgacha yosh davrida bolaning taraqqiyoti va shaxsning shakllanishi borasida ilmiy tadqiqotlar olib borar ekan, bolaning sensor taraqqiyoti, sezgi va idrok xususiyatlari ba uni olamni bilishdagi o'rniga nazariy

jihardan talqin qilgan. T.A.Kisilyuk va L.A.Teneviskiy ilk yoshda bola idroki buyumlarning payqash va olishning o`ziga xos xususiyatlarini o`rganib chiqqanlar bola malum bir narsani aniq bo`lmagan detallar bilan bog`lab o`rganishlarini ko`rsatib o`tganlar. Masalan —dumaloq shaklni chizib biri, —bu qizchall deb atasa , ikkinchi bolalbu kartoshkaldeb takidlagan. Ayni dumaloq shakl bolaning fantastik fikrlariga asos bo`lganligini ko`rsatib o`tadilar. Shu bilan birga katta yoshli bolalarning idrok qilish xususiyatlarini o`rganib turli yosh davrida taraqqiy etib borishini ko`rsatib o`tganlar. O`zbek psixolog olimlaridan N.S.Safiyev sensor tizim fenomenlari va ularga tizimli yondashuv muammosi bo`yicha tatqiqot ishlarini olib borgan . O`znavbatida eshitish ,ko`rish idroklarining o`ziga xos xususiyatlarini ochib bergan R.A.Tursunov o`z tatqiqotlarida idrok badiy obraz masalasini yoritib berishga xarakat qilgan. Ko`rinib turibdiki, sensor taraqqiyot muammosi bo`yicha ilmiy tatqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan. Barcha sezgi azolari go`dak hali onaning qornidagilik paytidanoq ancha takomillga erishgan bo`ladi. Shuning uchun bola tug`ilishidan boshlaboq uning barcha sezgi azolari tashqaridan va ichki muhitdan bo`ladigan tasirlarni aks ettirish qobiliyatiga egadir. Masalan o`n kunlik bola o`zining ko`z qorachig`ini biror yorug`lik manbai (elector lampochkasi) ustida to`xtata oladi. Bir oylik chaqaloq unga engashib (yuzini yaqin olib kelib) qarab turgan onasining chexasini o`z ko`z qorachiqlarini uzoq vaqt to`xtatib tura oladi. Ko`rish sezgisi chaqaloq bolalarda juda tez rivojlanadi. Ikki oylik bola sekin harakat qilayotgan narsani ko`z qorachig`i bilan kuzata oladi, to`rt oylik bola esa faqat ko`rish emas narsalarga faol qaray oladigan bo`lib qoladi. U qarayotgan narsalari turli xissiyotlarniyuzaga keltiradi. Go`dak bolalarda ko`rgan narsalarini tanish 5-6 oylik davrida paydo bo`ladi. Bola dastavval o`zi bilan eng ko`p munosabatda bo`ladigan odamni yani onasini tanib oladi. Sekin asta atrofdagi boshqa yaqin odamlarini tanib oladi. Buni biz kichik bolalarning uyga begona odam kelganda unga uzoq tikilishi va yotsirayotganidan bilamiz. Go`dak yoshidagi kichik bolalarda ranglarni sezish juda erta ko`rinadi.Masalan professor N.I.Krasnogorskiyning o`tkazgan tajribalariga ko`ra ranglarni farqlash bolalarda 3-4 oylik davridan boshlab ko`rina boshlaydi. Chunonchi bola xar-xil rangli butilkalardan ovqatlantirilgan. Lekin faqat qizil butilkalardagina sut bo`lgan. Oradan biroz vaqt o`tgash, bola faqat qizil butilkani og`ziga solgan,boshqa idishlarga befarq qaragan. Bu tajriba bolalarda ranglarni sezish va farqlash juda erta xosil bo`lishini ko`rsatadi. Shu tariqa psihologik taraqqiyot uchun juda katta ahamiyatga ega bo`lgan ko`rish sezish yasli yoshdagi bolalarning aktiv faoliyatlari jarayonida tez rivojlanib boradi. Go`dak yoshidagi bolalarda eshitish ham juda erta ko`rina boshladi, lekin bola tug`ilgandan so`ng nechanchi kundan boshlab eshita boshlashini aniqlash qiyin Bolalarning eshitish sezgirligini yoshlikdan oshirib borishi ularning aqliy o`sishiga yordam berish bilan birga ularga estetik tuyg`u tarbiyalashda ham katta ahamiyatga egadir. Malumki, ajoyib zamonaviy musiqalardan zavqlana bilish xususiyati kishida to`satdan paydo bo`lib, qolmaydi Biz maktabgacha yosh

davrida sensor taraqqiyotni o`rganish uchun maktabgacha talim muassasasida tatqiqot olib bordik. Bunda bog`chada talim olayotgan 15 nafar bolalar o`rtasida ranglarni idrok etish va ajrata olish bo`yicha bolalar bilan metodika olib bordik. Dastlabki ko`rsatkichlar va bolalar bilan ishlangandan so`ng natijalar quydagi jadvalda qayd etilgan: Ushbu natijalarni taxlil etar ekanmiz, shuni guvohi bo`ldikki bolalarni nazorat guruhidagi natijalar avval 4,5ni tashkil etar ekan oradagi farq 0,2nitashkil etadi. Natijadagi bunday oz miqdordagi farq bolani topshiriqni qayta qo`llash natijasida bolada hosil bo`lgan ko`nikmalar bilan bog`lash hamda ranglar bilan avval tanishishlarining ta`siri deb olish mumkin. Eksperiment guruhida olib borilgan shug`illanish ishlaridan keying farq 1,1ni tashkil etadi. Bola bilan qisqa vaqt shug`illanish uning ranglarni idrok eta olishlariga ta`sir ko`rsatgan, taraqqiy etish omili deb hisoblash mumkin. Bundan kelib chiqadiki maktabgacha talim muassasasida talim olayotgan bolalarda sensor taraqqiyotni oshirish uchun ular bilan muntazam shug`illanish shart.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. Karimov .I.A. O`zbekiston buyuk kelajak sari Toshkent,O`zbekiston 1998 yil
2. Karimov I.A. Yuksak manaviyat yengilmas kuch Toshkent 2008 yil
3. O`zbekiston Respublikasi —Talim to`g`risidagillqonuni Marifat gazetasi 1997 yil 1-oktiyabr.
4. M.Rasulova Maktabgacha yoshdagi bolalar talim-tarbiyasiga qo`yiladigan davlat talablari Toshkent 2000 yil